lashadi, biroq mazmun barqaror saqlanishi shart; aks holda, ikki xavf yuzaga keladi: desemantizatsiya – unsurlar saqlansa-da, avlod ularning asl mag‘zini unutib, marosimni moddiy manfaat yoki status vositasiga aylantiradi [6] va marosim inqirozi (kognitiv dissonans) – mazmun o‘zgarganiga qaramay, ijtimoiy inertsiya tufayli eski shakl sun’iy saqlanib qolinadi. Aynan shu dialektika va uning nomutanosib o‘zgarish ritmi tadqiqotning markaziy tahliliy nuqtasini tashkil etadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar «marosim», «urf-odat» va «an’ana» atrofidagi istilohiy chalkashlikka barham berib, quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, tushunchalar sinonim emas, balki jamiyat ma’naviy borlig‘ini ta’minlovchi ko‘p qatlamli mexanizmning uzviy elementlari: an’ana – «aksiologik o‘zak», urf-odat «ijtimoiy-normativ qoida», marosim ularning «ramziy-teatrallashgan namoyishi»dir. Ikkinchidan, ijtimoiy tadbirlarni to‘g‘ri baholash ularning ontologik mazmuni va tashkiliy xarakteri o‘rtasidagi tafovutni anglashni talab etadi: globallashuvda xarakter tez o‘zgarsa-da, mazmun barqaror saqlanishi shart, aks holda, kognitiv dissonans yuzaga keladi. Uchinchidan, desemantizatsiya xavfi asoslandi – bugungi eng katta inqiroz shaklning emas, mazmunning bo‘shab qolishida namoyon bo‘lmoqda.

Foyalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Qahhorova M., To‘rayev B. (2023). Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlar va marosimlar transformatsiyasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil. Toshkent, «Ma’naviyat», 145-bet.

(2). Xolmo‘minov, B. (2024). Turkiy xalqlar ijtimoiy hayotida «to‘ra» (töre) fenomenining qadriyatli-normativ mohiyati. “O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari”, 1(4), 112–118-betlar.

(3). Rahmatullayeva O. (2025). Marosimlar xarakteri va mazmuni dialektikasi: desemantizatsiya xavfi va ijtimoiy moslashuv. “Falsafa va huquq” jurnali, 2-son, 45–51-betlar.

(4). Ergasheva Y. (2022). Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy jarayonlar: an’ana, urf-odat va qonun ustuvorligi. “SamDU ilmiy axborotnomasi”, 3-son, 88–94-betlar.

(5). Смирнов А.А. (2021). Ритуал и традиция в условиях социокультурных трансформаций современности. “Вопросы философии”, № 8, с. 23–34.

(6). Алимова Д., Каримов У. (2023). Трансформация семейных обрядов в Центральной Азии: между традицией и современностью. “Социологические исследования”, № 5, с. 102–110.

(7). Hasanova G., Abdullaev R. (2024). Socio-philosophical analysis of traditional rituals in the modern Central Asian context. Asian Journal of Social and Philosophical Studies, 4(2), p. 34–45.

(8). Smith J., Kurbanov S. (2022). The Dynamics of Rituals and «Invented Traditions» in Post-Soviet Uzbekistan. Central Asian Survey. 41(3), p. 415-432.

Abdurahimov Behzodjon Bahromjon o‘g‘li (Qo‘qon davlat unversiteti “Falsafa va dinshunoslik” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi; ORCID: 0009-0004-7541-9575; Science ID: MFR-0626-0135; behzodjonabdurahimov1@gmail.com)

DEMOGRAFIK JARAYONLAR TUSHUNCHASI VA GENEZISI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada demografik jarayonlarning mazmun-mohiyati va tarixiy genezisi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Demografik o‘sish, tug‘ilish va o‘lim, migratsiya, urbanizatsiya, avlodlar almashinuvi hamda aholining yosh-jins tarkibidagi o‘zgarishlarning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri yoritilgan.. Tadqiqotda demografik o‘sishning o‘zi ijtimoiy taraqqiyotni kafolatlamasligi, uning real ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatga aylanishi inson kapitali sifati, ijtimoiy integratsiya va institutsional imkoniyatlarga bog‘liqligi asoslangan. Shuningdek, yoshlar ulushining ortishi demografik salohiyatning muhim omili sifatida baholanib, uning jamiyat rivojiga ta’sir mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *demografik jarayonlar, demografik o‘sish, demografik o‘tish, yoshlar, inson kapitali, ijtimoiy reproduksiya, ijtimoiy transformatsiya, migratsiya, urbanizatsiya, ijtimoiy taraqqiyot.*

ГЕНЕЗИС И СУЩНОСТЬ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация. *В статье анализируются сущность и исторический генезис демографических процессов с социально-философской точки зрения. Рассматривается влияние демографического роста, показателей рождаемости и смертности, миграции, урбанизации, смены поколений и изменений возрастно-половой структуры населения на развитие общества. Установлено, что сам по себе демографический рост не гарантирует социального прогресса; его трансформация в реальный социально-экономический потенциал зависит от качества человеческого капитала, социальной интеграции и институционального потенциала. Кроме того, рост численности молодежи оценивается как ключевой фактор демографического потенциала, а также научно обосновываются механизмы его влияния на развитие общества.*

Ключевые слова: *демографические процессы, демографический рост, демографический переход, молодежь, человеческий капитал, социальное воспроизводство, социальная трансформация, миграция, урбанизация, социальное развитие.*

THE CONCEPT AND GENESIS OF DEMOGRAPHIC PROCESSES

Annotation. *This article analyzes the essence and historical genesis of demographic processes from a socio-philosophical perspective. It examines the impact of demographic growth, birth and mortality rates, migration, urbanization, generational turnover, and changes in the population's age-sex structure on societal development. The study establishes that demographic growth alone does not guarantee social progress; rather, its transformation into real socio-economic potential depends on the quality of human capital, social integration, and institutional capabilities. Furthermore, the increase in the youth population is assessed as a crucial factor of demographic potential, and the mechanisms by which it influences societal development are scientifically elucidated.*

Keywords: *demographic processes, demographic growth, demographic transition, youth, human capital, social reproduction, social transformation, migration, urbanization, social development.*

Kirish. Demografik jarayonlar jamiyatning biologik davomiyligi va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. Tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, urbanizatsiya v a aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar nafaqat aholi soniga, balki mehnat taqsimoti, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli demografik jarayonlarni faqat statistik hodisa sifatida emas, balki inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida o‘rganish zarur. Demografik jarayonlarning dolzarbligi aholi soni va tarkibidagi o‘zgarishlarning davlatlar taraqqiyotiga turlicha ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi. BMTning World Population Prospects 2024 hisobotida jahon aholisi 2024-yilda qariyb 8,2 milliard kishiga yetgani qayd etilgan. Hisobotda, shuningdek, aholining o‘sish sur’atlari, tug‘ilish darajasi va yosh tarkibidagi o‘zgarishlar hududlar bo‘yicha bir xil kechmasligi ko‘rsatiladi [5]. Bu holat demografik jarayonlarni yagona qonuniyat bilan izohlash cheklanganligini va ularni tarixiy hamda ijtimoiy sharoit bilan bog‘liq holda tahlil qilish lozimligini ko‘rsatadi. Falsafiy nuqtayi nazardan, inson demografik jarayonlarning ham subyekti, ham natijalaridan ta’sirlanuvchi ishtirokchisidir. Insonning dunyoga kelishi biologik davomiylikni ta’minlasa, uning ta’lim olishi, kasbiy shakllanishi va ijtimoiy munosabatlarga kirishishi jamiyatning qayta ishlab chiqarilishiga xizmat qiladi. Demak, demografik reproduksiya va ijtimoiy reproduksiya o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, mazmunan bir xil hodisalar emas. Birinchisi aholi avlodlarining almashinuvini, ikkinchisi esa bilim, qadriyat, me’yor va ijtimoiy tajribaning uzatilishini anglatadi. Demografik o‘sishning o‘zi ijtimoiy taraqqiyot uchun yetarli shart hisoblanmaydi. Yoshlar ulushining ko‘pligi ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va bandlik imkoniyatlari bilan uyg‘unlashgandagina iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatga aylanishi mumkin. Shu jihatdan, demografik dividendni aholining yosh tarkibi bilan bir qatorda inson kapitali va institutsional imkoniyatlar orqali izohlash maqsadga muvofiq [2;4-b.]. Tadqiqotning maqsadi demografik jarayonlarning mazmuni va tarixiy genezisini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, demografik reproduksiya, ijtimoiy reproduksiya va ijtimoiy transformatsiya o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti jamiyatdagi demografik jarayonlar, predmeti esa ularning tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyot bilan aloqadorligidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Demografik jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirishda T. Maltus, F.Notestein, G.Bekker va R.Lee qarashlari muhim o‘rin tutadi. T.Maltus aholi o‘sishi va mavjud resurslar o‘rtasidagi nisbatga e’tibor qaratib, demografik o‘sishning iqtisodiy cheklovlarini muhokama qilgan [1]. Uning yondashuvi aholi va resurslar munosabatini ilmiy muammo sifatida shakllantirgan bo‘lsada, zamonaviy demografik vaziyatni faqat mazkur nisbat bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Chunki texnologik taraqqiyot, ishlab chiqarish samaradorligi, ta’lim va davlat institutlari ham jamiyatning demografik o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatlarini belgilaydi. F.Notestein bilan bog‘liq demografik o‘tish konsepsiyasi an’anaviy jamiyatdagi yuqori tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlaridan zamonaviy jamiyatga xos pastroq ko‘rsatkichlarga o‘tishni izohlashga xizmat qiladi [3]. R.Lee esa demografik o‘tishni uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq jarayon sifatida tahlil qiladi [4]. Ushbu yondashuvlar demografik o‘zgarishlarning tarixiy xususiyatini ochib beradi. Biroq demografik o‘tish barcha jamiyatlarda bir xil tezlikda va aynan bir xil shaklda kechmaydi. G.Bekkerning inson kapitali nazariyasi demografik salohiyatni ta’lim, malaka va insonning iqtisodiy faoliyati bilan bog‘liq holda tushunish imkonini beradi [2]. Mazkur nazariyaga ko‘ra, insonning bilim va ko‘nikmalari iqtisodiy faoliyat natijalariga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardir. Shu sababli yoshlar sonining ko‘pligini o‘z-o‘zidan taraqqiyot belgisi deb baholash emas, balki yoshlarning bilim olish, kasb egallash va mehnat faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlarini ham hisobga olish lozim. J.Weeks demografik jarayonlarni tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, yosh tarkibi va oilaviy munosabatlar bi-

lan bog‘liq tizim sifatida tahlil qiladi [6]. BMTning World Population Prospects 2024 hisobotida esa aholining global o‘sishi, tug‘ilish ko‘rsatkichlari va yosh tarkibidagi o‘zgarishlar bo‘yicha zamonaviy prognozlar berilgan [5]. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, demografik jarayonlarni to‘liq anglash uchun resurslar va aholi nisbatiga oid qarashlarni, demografik o‘tish konsepsiyasini hamda inson kapitali nazariyasini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish zarur. Mazkur maqolaning asosiy yondashuvi demografik jarayonlarni biologik davomiylik, ijtimoiy tajribaning uzatilishi va jamiyatdagi o‘zgarishlar birligi sifatida talqin qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy, dialektik, tizimli va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tarixiy metod demografik jarayonlarning turli davrlarda qanday shakllanganini izohlashga xizmat qildi. Dialektik yondashuv orqali demografik o‘zgarishlar va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tahlil qilindi. Tizimli yondashuv tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, urbanizatsiya va yosh tarkibini o‘zaro bog‘langan elementlar sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida Maltusning aholi va resurslar haqidagi qarashlari, demografik o‘tish konsepsiyasi hamda inson kapitali nazariyasining asosiy jihatlari solishtirildi. Tadqiqotning nazariy asosini ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlarning demografik hisobotlari tashkil etdi [1;6-b.]. Ish konseptual-nazariy xarakterga ega bo‘lib, mustaqil statistik hisob-kitob yoki empirik so‘rov natijalarini taqdim etmaydi. Tadqiqotning asosiy konseptual modeli quyidagicha ifodalanadi:

Demografik reproduksiya → ijtimoiylashuv → inson kapitalining shakllanishi → ijtimoiy reproduksiya → ijtimoiy transformatsiya. Ushbu ketma-ketlik demografik davomiylikning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri bevosita emas, balki ta’lim, ijtimoiylashuv va institutsional sharoitlar vositasida amalga oshishini tushuntiradi.

Tahlil va natijalar. Demografik jarayonlarning tarixiy genezisi insoniyatning tabiiy muhit va ijtimoiy tashkilot shakllari bilan o‘zaro munosabatlari asosida rivojlangan. An’anaviy jamiyatlarda tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari oziq-ovqat ta’minoti, epidemiyalar, urushlar va sanitariya sharoitlariga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lgan. Tibbiyot, sanitariya va ishlab chiqarishning rivojlanishi o‘lim ko‘rsatkichlarining kamayishiga imkon yaratgan. Keyingi bosqichlarda urbanizatsiya, ta’lim va oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlar tug‘ilish xulq-atvoriga ham ta’sir ko‘rsatgan. Bu jarayonlar demografik o‘zgarishlarni biologik omillar bilangina izohlash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Falsafiy jihatdan demografik jarayonlar tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning muhim ko‘rinishidir. Inson biologik mavjudot sifatida tabiiy qonuniyatlarga bo‘ysunsa-da, uning reproduktiv qarorlari ijtimoiy qadriyatlar, iqtisodiy sharoit, ta’lim va madaniy me’yorlar bilan ham belgilanadi. Shuning uchun demografik xulq-atvorni faqat tabiiy ehtiyojlar natijasi sifatida talqin qilish biryoqlama yondashuv hisoblanadi. Demografik reproduksiya va ijtimoiy reproduksiya o‘rtasidagi farq ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Aholining yangi avlod bilan almashinuvi jamiyatning biologik davomiyligini ta’minlaydi. Biroq yangi avlodning mavjud ijtimoiy hayotda to‘laqonli ishtirok etishi uchun bilim, qadriyat va kasbiy ko‘nikmalarni egallashi talab qilinadi. Demak, avlodlar almashinuvi jamiyatning davomiyligini ta’minlasa, ijtimoiylashuv uning mazmuniy uzluksizligini shakllantiradi. Demografik o‘tishning ijtimoiy mohiyati ham aynan shu nuqtayi nazardan namoyon bo‘ladi. Tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar iqtisodiy modernizatsiya, sog‘liqni saqlash, urbanizatsiya va oilaviy qadriyatlar bilan o‘zaro aloqada kechadi [3;4]. Biroq bu omillar o‘rtasidagi munosabatni barcha mamlakatlar uchun bir xil deb bo‘lmaydi. Har bir jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy muhiti va institutsional imkoniyatlari demografik o‘zgarishlarning shakli hamda sur’atiga ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari yoshlar ulushining ko‘pligi jamiyat uchun imkoniyat yaratishini, lekin bu imkoniyatning o‘zi taraqqiyot natijasi emasligini ko‘rsatadi. Yoshlarning ta’lim olishi, kasbiy tayyorgarligi va bandligi yetarli darajada ta’minlanmasa, demografik salohiyat kutilgan iqtisodiy natijani bermasligi mumkin. Aksincha, sifatli inson kapitali va samarali institutlar mavjud bo‘lsa, yosh avlod innovatsion faoliyat, tadbirkorlik va ijtimoiy yangilanishning muhim manbaiga aylanishi mumkin [2]. Shu ma’noda demografik dividend faqat mehnatga layoqatli aholi ulushining ortishi bilan belgilanmaydi. Uning ro‘yobga chiqishi iqtisodiy faol aholining samarali ish bilan ta’minlanishi, ta’lim sifati, sog‘liqni saqlash xizmatlari va mehnat bozorining imkoniyatlariga bog‘liq. Demak, demografik o‘sish bilan ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasida avtomatik sababiy bog‘lanish mavjud deb hisoblash to‘g‘ri emas. Migratsiya va urbanizatsiya ham demografik o‘zgarishlarning muhim tarkibiy qismlaridir. Migratsiya aholining hududiy taqsimotiga, oilaviy munosabatlarga va mehnat resurslarining joylashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Urbanizatsiya ta’lim va bandlik imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin, biroq uy-joy, transport va ijtimoiy infratuzilmaga bo‘lgan talabni ham oshiradi. Shuning uchun ushbu jarayonlarning natijalari ularni boshqaruvchi siyosat va mavjud institutsional sharoitlarga bog‘liq. Umumiy tahlil demografik jarayonlarni “inson – jamiyat – institut – taraqqiyot” munosabatlari doirasida o‘rganish zarurligini ko‘rsata-

di. Demografik o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga ta’sir etadi, jamiyatdagi iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar esa demografik xulq-atvorni qayta shakllantiradi. Mazkur o‘zaro ta’sir demografik jarayonlarning dialektik xususiyatini ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Demografik jarayonlar jamiyatning biologik davomiyligi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab hodisadir. Ularning tarixiy genezisi tabiiy sharoitlar, ishlab chiqarish, tibbiyot, ta’lim, urbanizatsiya va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi munosabatlar orqali shakllangan. Tadqiqot natijasida demografik reproduksiya va ijtimoiy reproduksiya o‘zaro bog‘liq, ammo mazmunan farqli jarayonlar ekanligi asoslandi. Birinchisi avlodlar biologik almashinuvini, ikkinchisi esa bilim, qadriyat va ijtimoiy tajribaning uzatilishini ifodalaydi. Ushbu ikki jarayonning uyg‘unligi jamiyatning barqarorligi va yangilanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Shuningdek, demografik o‘sishning o‘zi ijtimoiy taraqqiyotni kafolatlamasligi aniqlandi. Yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun sifatli ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, munosib bandlik va samarali institutsional muhit zarur. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

– demografik siyosatni inson kapitalini rivojlantirish va ta’lim siyosati bilan uzviy bog‘lash;

– yoshlarning kasbiy tayyorgarligi va bandligini mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq rivojlantirish;

– yoshlar tadbirkorligi va innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi institutsional sharoitlarni takomillashtirish;

– migratsiya va urbanizatsiya oqibatlarini hududiy rivojlanish hamda ijtimoiy infratuzilma bilan bog‘liq holda baholash;

– demografik prognozlarni uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishda tizimli qo‘llash.

Xulosa qilib aytganda, demografik jarayonlarni faqat aholi sonining o‘zgarishi bilan cheklab tushuntirish yetarli emas. Ularni inson salohiyati, ijtimoiy munosabatlar va institutsional rivojlanish bilan bog‘liq yaxlit jarayon sifatida o‘rganish jamiyat taraqqiyotining ichki mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Malthus T.R. An Essay on the Principle of Population. London, J.Johnson, 1798.

(2). Becker G S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd ed. Chicago, The University of Chicago Press, 1993.

(3). Notestein F.W. Population: The Long View. Food for the World. Chicago, University of Chicago Press, 1945.

(4). Lee R. The Demographic Transition: Three Centuries of Fundamental Change. Journal of Economic Perspectives. 2003, vol. 17, № 4, p. 167–190.

(5). United Nations. World Population Prospects 2024. New York, United Nations, 2024.

(6). Weeks J.R. Population: An Introduction to Concepts and Issues. 12th ed. Boston, Cengage Learning, 2015.

Avazov Sanjar Ergashovich (Qarshi davlat universiteti “Falsafa va sotsiologiya” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); sanjarbek555@mail.ru)

YOSHLAR BANDLIGI–O‘ZBEKISTON IJTIMOIY SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI

Annotatsiya. *Maqolada yoshlar bandligi masalasining mazmun-mohiyati, asosiy tendensiyalari tilga olingan hamda mazkur masala sabab va oqibat rakursida tahlil qilingan. Jumladan, bir qancha argumentlar, dalillar va faktlar, izchil mantiqiy asoslar va ilmiy manbalar asosida butun dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham yoshlar bandligi – O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida o‘rganib chiqilgan, mazmuni ochib berilgan, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, bandlik masalasi nafaqat ijtimoiy farovonlik, balki ijtimoiy taraqqiyot masalasi ekanligi maqolada ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy siyosat, yoshlar, ustuvor yo‘nalish, yoshlar bandligi, kuchli ijtimoiy siyosat, sifatli ta’lim, kasb ta’limi, yoishlarni qo‘llab-quvvatlash, biznesni qo‘llab-quvvatlash, ishsislik, bandlik.*

Авазов Санжар Эргашевич (доцент кафедры философии и социологии Каршинского государственного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам; sanjarbek555@mail.ru)

ЗАНЯТОСТЬ МОЛОДЕЖИ – ПРИОРИТЕТНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В статье рассматриваются сущность и содержание проблемы занятости молодежи, ее основные тенденции, а также проводится анализ данного вопроса с точки зрения причин и последствий. В частности, на основе ряда аргументов, доказательств и фактов, последо-*